

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGİYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEKNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	158
Ibragimov Aziz Turayevich	
TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECIKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI	164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО	171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна	
RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon	
MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich	
TUMANLAR SANOAT SALOHİYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	193
Yusupova Nigina Djurayevna	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	199
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
TASHQI SAVDO JARAYONLARINI BOSHQARISHDA "INTEGRATSIYALASHGAN TARIF" INTERAKTIV XIZMATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	207
Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li	
"NAVOIY KMK" AJDA INNOVATION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY- IQTISODIY KOMPONENTLARI.....	212
Kurbanova Mehriniso, Masharipov Ma'sud	
HUDUDIIY ENERGETIKA TA'MINOTI TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NEYRO- RAVSHAN EKONOMETRIK MODELARI: QASHQADARYO VILOYATI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIDAN DALILLAR	219
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA MOLIVAVIY AXBOROT VA BUXGALTERIYA HISOB MEXANIZMLARI	224
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	

BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA MOLIVAVIY AXBOROT VA BUXGALTERIYA HISOBİ MEXANİZMLARI

Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna

Farg'ona davlat texnika universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti v.v.b.

Iqtisodiyot fanları doktori (DSc)

ORCID: 0000-0002-8596-2473

Annotatsiya. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda sifatli moliyaviy axborot va samarali buxgalteriya hisobi mexanizmlari kapitalni oqilona taqsimlash, axborot asimmetriyasini kamaytirish, investitsion risklarni baholash hamda asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyalarini qayd etuvchi tizim bilan cheklanmay, korporativ boshqaruv samaradorligini oshiruvchi va makroiqtisodiy qarorlarni axborot bilan ta'minlovchi institutsional mexanizm sifatida talqin etiladi. Moliyaviy axborot sifatining oshishi axborot noaniqligi va risk mukofotini kamaytirishi, kapital qiymatini pasaytirishi hamda investitsiyalar hajmi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi asoslangan. Shuningdek, buxgalteriya axborotlarining fiskal, investitsion va tarmoq siyosatini shakllantirishdagi roli hamda MHXS/IFRSning moliyaviy shaffollik va xalqaro kapital bozorlariga integratsiyaga ta'siri yoritilib, barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi moliyaviy axborot mexanizmlari mikroiqtisodiy, institutsional va makroiqtisodiy darajalar bo'yicha tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: barqaror iqtisodiy o'sish, moliyaviy axborot, buxgalteriya hisobi, axborot asimmetriyasi, kapital qiymati, investitsion faollik, moliyaviy shaffollik, korporativ boshqaruv, MHXS/IFRS, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract. Ensuring sustainable economic growth largely depends on the quality of financial information and the effectiveness of accounting mechanisms, which play an important role in the rational allocation of capital, reduction of information asymmetry, assessment of investment risks, and adoption of well-grounded economic decisions. The study considers accounting not merely as a system for recording business transactions, but also as an institutional mechanism that contributes to improving corporate governance efficiency and providing information support for macroeconomic decision-making. It is substantiated that higher-quality financial information reduces information uncertainty and risk premiums, lowers the cost of capital, and contributes to increasing investment volumes and the efficiency of resource utilization. The study also highlights the role of accounting information in shaping fiscal, investment, and sectoral policies, as well as the impact of IFRS on financial transparency and integration into international capital markets. As a result, the mechanisms through which financial information influences sustainable economic growth are systematized at the microeconomic, institutional, and macroeconomic levels.

Keywords: sustainable economic growth, financial information, accounting, information asymmetry, cost of capital, investment activity, financial transparency, corporate governance, IFRS, economic stability.

Аннотация. Обеспечение устойчивого экономического роста во многом зависит от качества финансовой информации и эффективности механизмов бухгалтерского учета, которые играют важную роль в рациональном распределении капитала, снижении информационной асимметрии, оценке инвестиционных рисков и принятии обоснованных экономических решений. В исследовании бухгалтерский учет рассматривается не только как система регистрации хозяйственных операций, но и как институциональный механизм, способствующий повышению эффективности корпоративного управления и информационному обеспечению макроэкономических решений. Обосновано, что повышение качества финансовой информации способствует снижению информационной неопределенности и рисковой премии, уменьшению стоимости капитала, а также увеличению объема инвестиций и эффективности использования ресурсов. Кроме того, раскрыта роль бухгалтерской информации в формировании фискальной, инвестиционной и отраслевой политики, а также влияние МСФО/IFRS на финансовую прозрачность и интеграцию в международные рынки капитала. В результате механизмы воздействия финансовой информации на устойчивый экономический рост систематизированы на микроэкономическом, институциональном и макроэкономическом уровнях.

Ключевые слова: устойчивый экономический рост, финансовая информация, бухгалтерский учет, информационная асимметрия, стоимость капитала, инвестиционная активность, финансовая прозрачность, корпоративное управление, МСФО/IFRS, экономическая устойчивость.



KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o'sish faqat ishlab chiqarish hajmining ko'payishi bilan cheklanmaydi. U investitsiyalarning uzluksizligi, mehnat unumdorligining ortishi, resurslarning samarali taqsimlanishi, moliyaviy tizim barqarorligi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligi va iqtisodiy qarorlar sifatining yaxshilanishini ham qamrab oladi. Mazkur jarayonlarning barchasi ishonchli, taqqoslanadigan va o'z vaqtida shakllantirilgan iqtisodiy axborotga tayanadi. Shu sababli moliyaviy axborotning sifati iqtisodiy o'sishning an'anaviy omillari - kapital, mehnat va texnologiya - samaradorligini belgilovchi institutsional shartlardan biriga aylanmoqda.

Bozor mexanizmi sharoitida kapital va boshqa iqtisodiy resurslar eng samarali yo'nalishlarga avtomatik ravishda emas, balki qaror qabul qiluvchilarda mavjud bo'lgan axborotning sifati asosida taqsimlanadi. Investor korxonaning real moliyaviy holatini yetarlicha baholay olmasa, u yuqori risk mukofotini talab qiladi yoki investitsiyadan voz kechadi. Kreditor qarz oluvchining to'lov qobiliyatini aniq baholay olmasa, kredit stavkasi ortadi yoki moliyalashtirish cheklanadi. Davlat organlarida tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning real moliyaviy natijalari to'g'risida ishonchli ma'lumot bo'lmasa, fiskal, investitsion va tarkibiy siyosatning aniqligi pasayadi. Demak, moliyaviy axborotning sifati alohida korxona darajasidagi qarorlardan boshlab milliy iqtisodiyotdagi resurslar taqsimotigacha bo'lgan keng jarayonlarga ta'sir etadi. Buxgalteriya hisobi ushbu axborot infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning iqtisodiy ahamiyati aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarni qayd etishning o'zi bilan emas, balki shakllantirilgan ma'lumotlarning xo'jalik subyektlari o'rtasidagi ishonch, shartnomalar sifati, kapital bozoridagi baholash, investitsion qarorlar va davlat iqtisodiy siyosatiga ta'siri bilan belgilanadi. Shu ma'noda buxgalteriya hisobi mikroiqtisodiy axborotni institutsional va makroiqtisodiy qarorlar bilan bog'lovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, xususi investitsiyalar hajmini oshirish, raqobat muhitini yaxshilash va milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyasini jadallashtirish vazifalari moliyaviy axborotning sifatiga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sish, xususi investitsiyalarni kengaytirish, biznes ishonchini mustahkamlash va bozor tamoyillarini chuqurlashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Ushbu maqsadlarga erishishda korxonalar faoliyati to'g'risidagi ishonchli moliyaviy axborot iqtisodiy siyosat va bozor qarorlarining axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda moliyaviy axborotning sifati va buxgalteriya hisobi mexanizmlarining samarali amal qilishi investitsion faollikni rag'batlantirish, kapital qiymatini maqbullashtirish, resurslarning oqilona taqsimlanishini ta'minlash, korporativ boshqaruv sifatini oshirish hamda makroiqtisodiy qarorlarning axborot bazasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, axborot asimmetriyasini kamaytirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish va MHXS/IFRS asosida taqqoslanuvchan axborot muhitini shakllantirish iqtisodiy barqarorlik hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish masalalari iqtisodiyot nazariyasi hamda korxona iqtisodiyoti doirasida keng o'rganilgan. Iqtisodiy barqarorlik bozorlar, tarmoqlar va hududlar o'rtasidagi muvozanat, ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanish, daromad va xarajatlarning mutanosibligi, tashqi hamda ichki ta'sirlarga moslashish qobiliyati kabi jihatlar orqali tavsiflanadi [5–10]. Mazkur yondashuvlarning umumiy tomoni shundaki, barqarorlik alohida bir ko'rsatkich bilan emas, balki iqtisodiy tizimning resurslar, moliya, ishlab chiqarish va boshqaruv bo'yicha muvofiqlashgan holati orqali namoyon bo'ladi.

E.R. Misxo'jayev iqtisodiy barqarorlikni sanoat korxonasining ishlab chiqarish-xo'jalik, moliyaviy-iqtisodiy va tashkiliy tuzilmalarini tashqi bozor muhitiga moslashtirish orqali belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlovchi holat sifatida izohlaydi [6]. A.L. Gaponenko va A.P. Pankruxin yondashuvida barqarorlik tizim parametrlarining ichki va tashqi ta'sirlar sharoitida belgilangan me'yorlarda saqlanib qolish qobiliyati bilan bog'lanadi [8]. O.V. Zetkina esa resurslardan foydalanish samaradorligi, rentabelli ishlab chiqarish-tijorat faoliyati, aktivlar tarkibi va o'zini o'zi moliyalashtirish imkoniyatlarini iqtisodiy barqarorlikning muhim omillari sifatida ko'rsatadi [10]. Ushbu qarashlar moliyaviy axborotning barqarorlikni o'lchash va iqtisodiy qarorlarni asoslashdagi rolini tadqiq etish uchun nazariy asos yaratadi.

Buxgalteriya hisobi nazariyasiga oid manbalarda hisobning asosiy vazifasi xo'jalik jarayonlari to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotni shakllantirish, nazorat va boshqaruv uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etish bilan izohlanadi [4, 14]. Biroq barqaror iqtisodiy o'sish nuqtayi nazaridan buxgalteriya axborotining roli yanada kengroq. Uning iqtisodiy qiymati axborotdan foydalanuvchilar - investorlar, kreditorlar, mulkdorlar, menejerlar va davlat organlari - qarorlaridagi noaniqlikni kamaytirish orqali yuzaga chiqadi. Shunday qilib, buxgalteriya hisobi ishlab chiqarish natijalarini qayd etishdan tashqari, resurslarning kelgusidagi harakatini shakllantiradigan

axborot signallarini ham yaratadi.

Korxona darajasida iqtisodiy barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish o'rtasidagi bog'liqlik ilgari muallif tomonidan ham mehnat resurslari hamda bozor konyunkturasi tahlili doirasida ko'rib chiqilgan [2, 3, 12]. Ushbu natijalar korxonaning barqarorligi moliyaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini uzluksiz kuzatish, ularning sabablarini tahlil qilish va o'zgarishlarga mos boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Bunday monitoringning asosiy ma'lumot bazasi esa buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarda shakllanadi.

Zokirova va Talipova tomonidan iqtisodiyotning barqaror o'sish omillari va mexanizmlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy o'sishning institutsional va tarkibiy shartlariga e'tibor qaratilgan [15]. Ushbu nuqtayi nazar moliyaviy axborot sifatini ham iqtisodiy o'sishning bevosita ishlab chiqarish omili emas, balki kapital, investitsiya va boshqaruv samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi institutsional omil sifatida talqin etish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy barqarorlik, korxona samaradorligi va buxgalteriya hisobining axborot funksiyasi alohida yo'nalishlarda yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, moliyaviy axborot sifati bilan barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzatish mexanizmlarini yagona tizim sifatida izohlashga ehtiyoj mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan umumilmiy usullardan foydalanildi. Xususan, moliyaviy axborot va buxgalteriya hisobi mexanizmlarining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishda kuzatish, umumlashtirish, guruhlash va taqqoslash usullari qo'llanildi. Shuningdek, o'rganilgan nazariy qarashlar va iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda tegishli ilmiy xulosalarni shakllantirishda tahlil va sintez usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror iqtisodiy o'sishning axborot asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, moliyaviy axborot iqtisodiy tizimda uchta asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, u iqtisodiy subyektlar faoliyati to'g'risidagi noaniqlikni kamaytiradi. Ikkinchidan, resurslar qayerga va qanday shartlarda yo'naltirilishi haqida bozor ishtirokchilariga signal beradi. Uchinchidan, qabul qilingan iqtisodiy qarorlarning natijalarini baholash va keyingi qarorlarni tuzatish uchun qayta aloqa mexanizmini yaratadi. Mazkur uch funktsiya birgalikda moliyaviy axborotni iqtisodiy o'sish jarayonining institutsional infratuzilmasiga aylantiradi.

Korxona darajasida buxgalteriya axboroti aktivlarning tarkibi va unumdorligi, majburiyatlarning muddati va qiymati, daromadlarning shakllanish manbalari, xarajatlarning tarkibi, pul oqimlari va rentabellik haqida tizimli ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar korxonaning mavjud resurslardan qanchalik samarali foydalanayotganini aniqlash, samarasiz yo'nalishlarni qisqartirish va yuqori qaytim beruvchi faoliyatga kapitalni qayta taqsimlash imkoniyatini yaratadi. Shu sababli buxgalteriya ma'lumotlarining iqtisodiy qiymati retrospektiv hisobot berish bilan cheklanmaydi, ular kelgusidagi ishlab chiqarish, investitsiya va moliyalashtirish qarorlarining axborot bazasi hisoblanadi.

Moliyaviy axborotning iqtisodiy o'sishga ta'sirini to'g'ridan-to'g'ri munosabat sifatida talqin qilish yetarli emas. Ta'sir bir qator oraliq bo'g'inlar orqali amalga oshadi. Xususan, ushbu uzatish mexanizmini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin: **moliyaviy axborot sifati oshishi** → **axborot asimmetriyasi va noaniqlikning kamayishi** → **investor va kreditorlar talab qiladigan risk mukofotining pasayishi** → **kapital qiymatining pasayishi** → **investitsion loyihalar doirasining kengayishi** → **ishlab chiqarish quvvati, texnologik yangilanish va mehnat unumdorligining ortishi** → **barqaror iqtisodiy o'sish**. Mazkur zanjirning birinchi bosqichi axborot asimmetriyasi bilan bog'liq. Korxona rahbariyati uning moliyaviy holati va istiqbollari haqida tashqi investor yoki kreditorga nisbatan ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi. Moliyaviy hisobot sifatining pastligi ushbu axborot farqini yanada kuchaytiradi. Investor korxonaning real riskini aniq ajrata olmaganda, barcha loyihalarga nisbatan ehtiyotkorroq yondashadi va yuqoriroq daromadlilikni talab qiladi. Natijada iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan ayrim loyihalar ham moliyalashtirilmay qolishi mumkin. Shaffof va taqqoslanadigan moliyaviy axborot bunday noaniqlikni kamaytirib, kapitalning nisbatan samarali loyihalarga yo'naltirilishiga yordam beradi.

Ikkinchi bosqich kapital qiymati bilan bog'liq. Investor yoki kreditor tomonidan talab qilinadigan daromadlilik stavkasi risk darajasi haqidagi tasavvur bilan chambarchas bog'langan. Moliyaviy axborot qanchalik ishonchli bo'lsa, korxonaning pul oqimlari va majburiyatlarini baholash imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Bu risk mukofotining pasayishiga va moliyalashtirish qiymatining kamayishiga sharoit yaratadi. Kapital qiymatining



pasayishi esa investitsiya loyihalarining sof iqtisodiy samaradorligini oshirib, ilgari yuqori moliyalashtirish xarajati sababli rad etilgan loyihalarining amalga oshirilishiga imkon beradi.

Uchinchi bosqich investitsion faollik va ishlab chiqarish salohiyatiga ta'sirni ifodalaydi. Arzonroq va uzoq muddatli kapital korxonalarga asosiy vositalarni yangilash, texnologik modernizatsiya, tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirish, inson kapitaliga investitsiya kiritish hamda ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish imkonini beradi. Bu jarayonlar mehnat unumdorligi va kapital qaytimining oshishiga, mahsulot tannarxining pasayishiga, raqobatbardoshlikning kuchayishiga va yakunda qo'shilgan qiymatning ortishiga xizmat qiladi.

To'rtinchi bosqich korporativ boshqaruvdan iborat bo'lib, ushbu bosqichda buxgalteriya hisobi mulkdorlar va menejerlar o'rtasidagi nazorat mexanizmini kuchaytirishga, samarasiz xarajatlarni, aktivlardan maqsadsiz foydalanish va boshqaruvdagi og'ishlarni aniqlashga xizmat ko'rsatadi. Shaffof hisobot rahbariyat faoliyatini natijalar bilan bog'lash, ichki nazorat tizimini takomillashtirish va strategik maqsadlarga erishish darajasini baholash uchun asos yaratadi. Korporativ boshqaruv sifati oshgani sayin kapital va boshqa resurslarning samarasiz sarflanishi kamayadi, bu esa alohida korxona samaradorligi orqali umumiy iqtisodiy unumdorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchi bosqich moliyaviy axborotning makroiqtisodiy siyosatdagi rolini qamrab oladi. Davlat organlari iqtisodiyot tarmoqlari, korxonalar moliyaviy holati, foyda va zararlar, qarzдорlik, investitsion xarajatlarni va boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi yig'ma axborotdan fiskal prognozlash, soliq bazasini baholash, tarmoq siyosati, investitsion dasturlar va moliyaviy barqarorlik choralarni ishlab chiqishda foydalanadi. Korporativ axborot sifati past bo'lsa, agregat ko'rsatkichlarning aniqligi pasayadi va iqtisodiy siyosatda noto'g'ri signallar paydo bo'lishi mumkin. Demak, buxgalteriya hisobi mikroiktisodiy ma'lumotlarning makroiqtisodiy qarorlarga uzatilishida muhim axborot kanali bo'lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Moliyaviy axborotning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari

Mexanizm	Iqtisodiy uzatish kanali	Kutiladigan iqtisodiy natija
Moliyaviy axborot sifati	Noaniqlik va axborot asimmetriyasini kamaytiradi	Qarorlarning aniqligi va bozor ishonchi oshadi
Kapital qiymati	Risk mukofoti va moliyalashtirish xarajatlarga ta'sir qiladi	Investitsion loyihalar doirasi kengayadi
Investitsion faollik	Kapital oqimini samarali loyihalarga yo'naltiradi	Asosiy kapital, texnologiya va ishlab chiqarish kengayadi
Korporativ boshqaruv	Nazorat, hisobdorlik va resurs intizomini kuchaytiradi	Unumdorlik va aktivlardan foydalanish samaradorligi oshadi
MHXS/IFRS va taqqoslanuvchanlik	Xalqaro investorlar uchun axborot xarajatlarini kamaytiradi	Investitsion jozibadorlik va kapital bozorlariga integratsiya kuchayadi
Davlat siyosati	Fiskal, tarmoq va investitsion qarorlar uchun ma'lumot bazasini yaxshilaydi	Makroiqtisodiy siyosatning aniqligi va barqarorligi oshadi

Moliyaviy axborot va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni konseptual ravishda quyidagicha ifodalash mumkin. Barqaror iqtisodiy o'sish sur'ati g moliyaviy axborot sifati (FIQ), investitsion faollik (I), resurslardan foydalanish samaradorligi (RE), korporativ boshqaruv sifati (CG) va makroiqtisodiy axborot aniqligi (MI) funksiyasi sifatida qaraladi: $g = f(FIQ, I, RE, CG, MI | INST)$. Bu yerda INST institutsional muhit - qonun ustuvorligi, mulk huquqi himoyasi, audit sifati, moliya bozori infratuzilmasi va standartlarni qo'llash amaliyotini ifodalaydi. Vertikal chiziqdan keyingi INST omili moliyaviy axborotning iqtisodiy natijaga aylanish kuchi institutsional sharoitga bog'liqligini ko'rsatadi. Mazkur modelda moliyaviy axborot sifati bilan axborot asimmetriyasi (IA) o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud deb qaraladi ($\Delta IA / \Delta FIQ < 0$). Axborot asimmetriyasi ortgan sari investor talab qiladigan risk mukofoti va kapital qiymati (Ck) oshadi: ($\Delta Ck / \Delta IA > 0$). Kapital qiymatining oshishi investitsiya hajmiga salbiy ta'sir qiladi: ($\Delta I / \Delta Ck < 0$). Investitsiya hajmi, texnologik yangilanish va unumdorlik ortishi esa iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: ($\Delta g / \Delta I > 0$). Shu ketma-ketlik asosida, boshqa shartlar o'zgarmagan holda, moliyaviy axborot sifati yaxshilanishining iqtisodiy o'sishga umumiy ta'siri ijobiy yo'nalishda bo'lishi kutiladi.

Ushbu nazariy bog'liqlikni "buxgalteriya hisobi iqtisodiy o'sishni bevosita yuzaga keltiradi" degan sodda xulosaga aylantirish to'g'ri emas. Moliyaviy axborot kapital, mehnat yoki texnologiyani o'rni bosmaydi. U, aksincha, mazkur omillarni qayerga va qanday shartlarda yo'naltirish bo'yicha qarorlarning sifatini oshiradi. Shu sababli buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot iqtisodiy o'sishning vositachi institutsional omili sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. MHXS/IFRSga muvofiqlashtirish ushbu mexanizmlarning bir nechtasiga bir vaqtning o'zida ta'sir qiladi. Bir xil tamoyillar asosida tuzilgan moliyaviy hisobot turli korxonalar va mamlakatlar ko'rsatkichlarini taqqoslashni yengillashtiradi, tashqi investorning axborot yig'ish va tahlil qilish xarajatlarini kamaytiradi hamda

kapital bozorida baholash sifatini oshiradi. O'zbekiston korxonalarining xalqaro standartlarga muvofiq hisobot tuzish amaliyotini kengaytirishi, ayniqsa, yirik va strategik subyektlarda investitsion ochiqlik va global kapital bozorlariga integratsiyaga xizmat qilishi mumkin. Biroq standartni formal joriy etishning o'zi yetarli emas; uning iqtisodiy samarasini audit sifati, mutaxassislar malakasi, ichki nazorat va huquqni qo'llash amaliyoti belgilaydi.

Kichik va o'rta biznes nuqtayi nazaridan esa boshqa muvozanat muhim. Haddan tashqari murakkab hisobot talablari ma'muriy va tranzaksiya xarajatlarini oshirishi mumkin. Shu sababli moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish bilan birga, korxona hajmi va iqtisodiy ahamiyatiga mos proporsional hisob talablarini joriy etish zarur. Soddalashtirilgan, ammo ishonchli hisob tizimi kichik biznesning moliyaviy intizomini yaxshilashi, kreditga layoqatlilikni baholashni osonlashtirishi va rasmiy moliya tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Integratsiyalashgan va boshqaruv hisobotlarining rivojlanishi moliyaviy axborotning iqtisodiy mazmunini yanada kengaytiradi. Korxonaning strategiyasi, risklari, inson kapitali, ekologik va ijtimoiy omillari to'g'risidagi ma'lumotlar uzoq muddatli qiymat yaratish salohiyatini baholashda muhim bo'lib bormoqda. Barqaror iqtisodiy o'sish nuqtayi nazaridan bunday ma'lumotlar investorlarga nafaqat joriy foydani, balki korxonaning kelgusidagi moslashuvchanligi va tashqi shoklarga chidamliligini ham baholash imkonini beradi.

Moliyaviy axborotning iqtisodiy samarasi uning hajmi bilan emas, sifat xususiyatlari bilan belgilanadi. Iqtisodiy qarorlar nuqtayi nazaridan axborot ishonchli, taqqoslanuvchan, tushunarli va o'z vaqtida bo'lishi kerak. Ishonchlilik korxonaning real moliyaviy holati bilan hisobotdagi tasvir o'rtasidagi tafovutni kamaytiradi. Taqqoslanuvchanlik investor va kreditorlarga bir nechta korxona yoki davr ko'rsatkichlarini yagona mezonda baholash imkonini beradi. O'z vaqtida taqdim etilgan axborot esa kechikkan ma'lumotlarga xos qaror yo'qotishlarini kamaytiradi. Mazkur xususiyatlardan birortasi yetarli bo'lmasa, axborotning iqtisodiy qiymati pasayadi: masalan, aniq, ammo juda kech taqdim etilgan ma'lumot investitsion qaror uchun amaliy ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Moliyaviy axborot tranzaksiya xarajatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Bozor ishtirokchilari bitim tuzishdan oldin qarshi tomonning to'lov qobiliyati, qarzdorligi, rentabelligi va pul oqimlarini baholash uchun vaqt va resurs sarflaydi. Hisobotlar ishonchli va standartlashtirilgan bo'lsa, axborotni izlash, tekshirish va qayta ishlash xarajatlari kamayadi. Natijada shartnoma tuzish tezlashadi, savdo krediti va bank krediti bo'yicha qarorlar aniqroq qabul qilinadi, biznes hamkorlari o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi. Tranzaksiya xarajatlarining pasayishi, ayniqsa, ko'plab kichik va o'rta korxonalar ishtirok etadigan tarmoqlarda iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi omil bo'lishi mumkin.

Kreditlash mexanizmidan moliyaviy axborotning roli yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bank kredit ajratishda korxonaning joriy likvidligi, qarz yuklamasi, pul oqimlari, rentabelligi va aktivlar tarkibini baholaydi. Agar ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha axborot yetarlicha ishonchli bo'lmasa, kredit tashkiloti noaniqlikni foiz stavkasi, qo'shimcha ta'minot yoki kredit limitlari orqali qoplaydi. Demak, sifatli buxgalteriya hisobi kredit riskini to'g'ridan-to'g'ri bartaraf etmasa-da, uni aniqroq baholash imkonini beradi. Bu esa iqtisodiy jihatdan barqaror korxonalar uchun moliyalashtirishga kirishni osonlashtirishi va investitsion faollikni oshirishi mumkin.

Buxgalteriya axboroti resurslar unumdorligini oshirishda ichki iqtisodiy mexanizm sifatida ham ishlaydi. Xarajatlarni mahsulot, bo'linma, loyiha yoki jarayonlar kesimida to'g'ri aks ettirish boshqaruvga qaysi yo'nalishlar qo'shimcha qiymat yaratayotganini, qaysi faoliyat esa resurslarni samarasiz band qilayotganini aniqlash imkonini beradi. Aktivlar aylanuvchanligi, ishlab chiqarish zaxiralari, debitorlik qarzlari va operatsion xarajatlar bo'yicha tahlil natijalari kapitalni qayta taqsimlash qarorlariga asos bo'ladi. Natijada iqtisodiy o'sish faqat qo'shimcha resurs jalb qilish hisobiga emas, balki mavjud resurslarning unumdorligini oshirish orqali ham qo'llab-quvvatlanadi.

Moliyaviy axborotning fiskal tizimga ta'siri ham barqaror o'sish uchun muhimdir. Korxonalar hisobining aniqligi soliqqa tortiladigan bazani to'g'ri shakllantirish, soliq majburiyatlarini prognozlash va davlat daromadlarini barqarorroq rejalashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, hisob tizimining ortiqcha murakkabligi biznesning ma'muriy yukini oshirishi mumkin. Shuning uchun iqtisodiy siyosatda ikki maqsad - fiskal shaffoflik va biznes xarajatlarini oqilona darajada saqlash - muvozanatlashishi zarur. Mazkur muvozanat iqtisodiy faoliyatning rasmiy sektorda kengayishi, investitsiya uchun tushunarli qoidalar va davlat moliyasining barqarorligi uchun ahamiyatlidir.

Xorijiy investitsiyalar nuqtayi nazaridan moliyaviy hisobotning taqqoslanuvchanligi alohida ahamiyat kasb etadi. Tashqi investor yangi bozorda faoliyat yurituvchi korxonaning moliyaviy holatini tushunish uchun qo'shimcha axborot xarajatlariga duch keladi. Hisobot xalqaro tan olingan tamoyillarga asoslangan bo'lsa, investorning ma'lumotni qayta talqin qilish ehtiyoji kamayadi va turli mamlakatlardagi investitsiya variantlarini qiyoslash osonlashadi. Shu sababli MHXS/IFRSga o'tish investitsiyani avtomatik ravishda oshiradigan omil emas, ammo investitsiya qarori uchun zarur bo'lgan axborot infratuzilmasini yaxshilovchi shartlardan biridir.

Barqaror iqtisodiy o'sish faqat yuqori o'sish sur'atini emas, tashqi va ichki shoklarga moslashish qobiliyatini ham talab qiladi. Bunda korxonalarning qarzdorlik, likvidlik, pul oqimi va rentabellik holati haqidagi o'z vaqtida ma'lumotlar iqtisodiyotda zaifliklar qayerda to'planayotganini erta aniqlashga yordam beradi. Korporativ



ma'lumotlarning tarmoq va makro darajada agregatsiya qilinishi kredit xavfi, investitsion pasayish yoki to'lov intizomidagi muammolarni oldindan ko'rish imkoniyatini kengaytiradi. Shu ma'noda moliyaviy axborot iqtisodiy o'sishning nafaqat tezligini, balki barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi diagnostik mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy axborotning tezkorligi va qayta ishlanish darajasi alohida iqtisodiy omilga aylanmoqda. Elektron hisob, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va ma'lumotlarni integratsiyalash korxonalarda qaror qabul qilish davrini qisqartiradi. Biroq raqamlashtirishning samarasi ma'lumotlarning dastlabki sifati past bo'lsa, cheklangan bo'ladi. Noto'g'ri ma'lumotni tez qayta ishlash sifatli qaror emas, balki xatoni tezroq ko'paytirishi mumkin. Shu sababli raqamli transformatsiya moliyaviy axborot standartlari, ichki nazorat, audit va xodimlar kompetensiyasi bilan birgalikda rivojlanishi lozim.

O'zbekiston sharoitida moliyaviy axborotni barqaror iqtisodiy o'sish bilan bog'lashda korxona darajasidagi islohotlar bilan makroiqtisodiy axborot siyosatini uyg'unlashtirish muhim. Korxonalarda shakllanadigan ma'lumotlar kreditlash, investitsiya, soliq va tarmoq siyosatida qayta ishlatiladigan darajada standartlashgan bo'lsa, bir xil ma'lumotni takroran yig'ish ehtiyoji kamayadi va davlat hamda biznesning axborot xarajatlari qisqaradi. Bunday integratsiya iqtisodiy siyosatning tezkorligi va aniqligini oshirish bilan birga, korxonalarga nisbatan ma'muriy yukni ham kamaytirishga xizmat qilishi mumkin (2-jadval).

2-jadval. Moliyaviy axborot mexanizmlarini rivojlantirishning iqtisodiy yo'nalishlari

Daraja	Asosiy muammo	Takomillashtirish mexanizmi	Iqtisodiy natija/indikator
Korxona	Ichki axborotning parchalanishi	Hisob, boshqaruv tahlili va ichki nazorat integratsiyasi	Resurslar unumdorligi, rentabellik, pul oqimi
Bank-moliya tizimi	Qarz oluvchi riski bo'yicha noaniqlik	Standartlashgan va tekshiriladigan moliyaviy hisobot	Kapital qiymati, kredit shartlari, kreditga kirish
Investitsiya bozori	Taqqoslash xarajatlarining yuqoriligi	MHXS/IFRS va ochiqlik talablarini rivojlantirish	Investitsiya hajmi, investorlar bazasi, risk mukofoti
Davlat	Agregat iqtisodiy ma'lumotlarning kechikishi	Korxona va tarmoq ma'lumotlarini raqamli integratsiyalash	Fiskal prognoz, tarmoq siyosati, iqtisodiy diagnostika
Kichik biznes	Hisob yuritish xarajatlarining nisbatan yuqoriligi	Proporsional va soddalashtirilgan, ammo ishonchli hisob talablari	Rasmiylashuv, kreditga layoqatlilik, tranzaksiya xarajatlari

Tadqiqot natijalari moliyaviy axborot va buxgalteriya hisobining iqtisodiy o'sishdagi rolini "hisob - nazorat - hisobot" doirasidan kengroq talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Moliyaviy axborot iqtisodiy tizimdagi ishonchni shakllantirish, bozor ishtirokchilarining kelajak haqidagi kutilmalarini aniqlashtirish va kapital oqimlarining yo'nalishini belgilashda ishtirok etadi. Shu ma'noda u iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlovchi axborot infratuzilmasi hisoblanadi. Lekin moliyaviy axborot sifati bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabat institutsional sharoitlardan mustaqil emas. Agar mulk huquqi yetarli himoyalansa, shartnomalar ijrosi sust bo'lsa, audit sifati past yoki moliya bozori chuqurligi yetarli bo'lmasa, yuqori sifatli hisobotning real iqtisodiy natijaga aylanishi cheklanishi mumkin. Shuning uchun hisob va hisobot standartlarini isloh qilish alohida texnik chora sifatida emas, balki korporativ boshqaruv, audit, investorlar huquqi va moliya bozori infratuzilmasini takomillashtirish bilan uyg'un olib borilishi lozim.

Taklif etilgan konseptual model O'zbekiston sharoitida bir necha amaliy tadqiqot yo'nalishlarini shakllantirish imkoniyatini beradi. Birinchidan, MHXS/IFRSga o'tgan va o'tmagan korxonalar kesimida kapital qiymati va kredit shartlaridagi farqlarni baholash mumkin. Ikkinchidan, moliyaviy hisobot sifati bilan investitsion faollik, asosiy kapitalga investitsiyalar va rentabellik o'rtasidagi bog'liqlikni panel ma'lumotlar asosida tekshirish mumkin. Uchinchidan, tarmoqlar kesimida hisobot shaffofligi, xorijiy investitsiyalar va eksport faolligi o'rtasidagi munosabatlarni ekonometrik baholash kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Shu bilan birga, korxona va davlat darajasidagi ma'lumotlarni raqamlashtirish moliyaviy axborotning iqtisodiy qiymatini oshirishi mumkin. Raqamli hisob tizimlari, avtomatlashtirilgan nazorat va tahliliy platformalar ma'lumotlarning tezkorligini oshiradi, xatolarni kamaytiradi va qaror qabul qiluvchilarga real vaqtga yaqin axborot taqdim etadi. Ammo raqamlashtirishning iqtisodiy natijasi faqat texnologiya xarid qilish bilan emas, balki ma'lumotlar sifati, standartlashtirish, kadrlar kompetensiyasi va axborot xavfsizligi bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy tahlil asosida moliyaviy axborot va buxgalteriya hisobi barqaror iqtisodiy o'sishning bevosita ishlab chiqarish omili emas, balki kapital, investitsiya, boshqaruv va davlat siyosati samaradorligini oshiruvchi institutsional mexanizm ekanligi asoslandi. Sifatli moliyaviy axborot bozor ishtirokchilarining noaniqligini kamaytiradi, riskni aniqroq baholash imkonini beradi, kapital qiymatini pasaytirishga sharoit yaratadi va iqtisodiy resurslarning nisbatan samarali loyihalarga yo'naltirilishiga yordam beradi. Buxgalteriya axborotining iqtisodiy o'sishga ta'siri bir-birini to'ldiruvchi beshta asosiy kanal orqali namoyon bo'ladi: axborot asimmetriyasini kamaytirish; kapital qiymati va moliyalashtirish shartlarini yaxshilash; investitsion faollikni rag'batlantirish; korporativ boshqaruv va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish; davlatning fiskal, investitsion va tarmoq siyosatini ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash. Ushbu kanallarning samaradorligi esa institutsional muhit sifati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni moliyaviy axborot orqali qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor deb hisoblanadi:

- MHXS/IFRSga o'tish jarayonini faqat hisobot shakllarini o'zgartirish emas, balki investitsion shaffoflik va kapital bozoriga kirish infratuzilmasini rivojlantirish vazifasi bilan bog'lash;

- audit sifati, ichki nazorat va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish;

- kichik va o'rta biznes uchun hisob talablarini korxona hajmi va riskiga mutanosib ravishda soddalashtirish, biroq moliyaviy axborotning minimal ishonchlilik talablarini saqlab qolish;

- buxgalterlar, auditorlar, moliyachilar va iqtisodiy tahlilchilarni xalqaro standartlar, raqamli hisob va tahliliy kompetensiyalar bo'yicha muntazam tayyorlash;

- korxona darajasidagi moliyaviy ma'lumotlarni tarmoq va makroiqtisodiy tahlil tizimlari bilan integratsiyalash orqali davlat qarorlarining axborot bazasini kuchaytirish;

- moliyaviy hisobot sifati, kapital qiymati va investitsion faollik o'rtasidagi bog'liqlikni empirik baholashga qaratilgan milliy tadqiqotlar bazasini shakllantirish;

- moliyaviy hisobot bilan bir qatorda strategik risklar, ekologik va ijtimoiy omillarni aks ettiruvchi integratsiyalashgan hisobot elementlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish.

Umuman olganda, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda moliyaviy axborotning iqtisodiy qiymati uning qancha ma'lumot yaratishi bilan emas, balki mazkur ma'lumotlar kapitalni samarali yo'naltirish, investitsiya riskini kamaytirish, resurslar unumdorligini oshirish va davlat siyosatini aniqroq shakllantirishga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shu sababli buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish iqtisodiyotni raqamlashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlash siyosatining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son¹.
2. Abdullayeva, S. (2025). "To'qimachilik mahsulotlarining bozor konyunkturasi tahlili". Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2(3), 985–990.
3. Khasanovna, A. S. (2025). Efficient Use of the Company's Workforce as a Key Factor in Ensuring Economic Sustainability. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(4), 1557–1570.
4. Toshmamatov, T. (2019). Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 376 b.
5. Qodirov, A., Xashimov, P.Z., Muminov, N.G., Ortiqov, N.Y., Rejapov, X.X. (2023). Iqtisodiyot nazariyasi. I qism. Toshkent: GRAND KONDOR PRINT, 476 b.
6. Мисхожев, Э. Р. (2011). Диагностика экономической устойчивости промышленного предприятия.
7. Asatullayev, X., Tursunov, B., Mamanazarov, A. (2019). Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 520 b.
8. Гапоненко, А. Л., Панкрухин, А. П. (2002). Общий и специальный менеджмент. Учебник. Изд-во РАГС.
9. Борисов, Е. Ф. (2025). Основы экономики: учебник и практикум для среднего профессионального образования. 7-е изд. Москва: Юрайт, 383 с.
10. Барканов, А. С. (2005). Оценка экономической устойчивости строительного предприятия. Экономика строительства, (8), 35–43.
11. Зеткина, О. В. (2004). Совершенствование управления экономической устойчивостью промышленного предприятия на основе интегрального показателя. Диссертация.
12. Абдуллаева, С. (2024). Современные подходы к понятию «экономическая стабильность», а также система ее

1 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



основных показателей. Экономическое развитие и анализ, 2(12), 242–249.

13. Qudbiyev, N. T. (2023). Korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari.
14. Narzullayeva, O. Q. (2025). Buxgalteriya hisobining usuli va ularning mazmuni. Journal of Marketing, Business and Management, 3(12), 361–366.
15. Зокирова, Н. К., Талипова, Н. Т. (2025). Факторы и механизмы устойчивого роста экономики. Российский внешнеэкономический вестник, (2), 94–106.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100